

SOG'LIQNI SAQLASH VA RAQAMLI TIBBIYOT

Ilmiy rahbar: Zilola Boltayeva

Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi

Rasulov Navruzbek Jasur o'g'li

Samarqand davlat chet tillar instituti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekistonning Sog'liqni saqlash va Raqamli tibbiyotda erishilgan bazi yutuq va kamchiliklarini muhokama qiladi. Maqolada o'tgan bir necha yil davomida sog'liqni saqlash tizimiga qaratilgan e'tibor va islohotlar, shuningdek keyingi 2024-2025 yillarda amalga oshirilishi kerak bo'lgan rivojlanish bosqichlarini, yangi davolash usullari, emlashlar va dori-darmonlarni ishlab chiqish sohasiga katta e'tibor berilishi ko'zda tutilgan. Shu bilan birga, raqamli tibbiyotning faol rivojlanishi, tibbiyot birlashmalarining zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanishi mavzulari atroflicha o'rganiladi.

Keyword: raqamli tibbiyot, telemeditsina, zamonaviy texnologiyalar, tibbiyot birlashmalari, strategiyalar

Covid-19 ommaviy pandemiyasi sog'liqni saqlash inqiroziga tezkor javob berish muhimligini ko'rsatdi. Bu barchaga birdek noqulayliklar va tizimdagi muammolarni yuzaga keltirib chiqardi. Pandemiya so'ng O'zbekiston Sog'liqni Saqlash Vazirligi sohadagi bir qator o'zgarishlarni amalga oshirdi. Jumladan Sog'liqni saqlash sohasini raqamlashtirishning 2021–2025 yillarga mo'ljallangan strategiyasi ishlab chiqish va sog'liqni saqlash sohasida axborot tizimlarini yaratish maqsad qilib qo'yildi. Joylarda aholiga qulayliklar yaratish uchun ko'chma tibbiyot punktlari tashkil etildi. Shuningdek, sog'liqni saqlash tizimida raqamli tibbiyotga ham katta e'tibor qaratila boshladi. Shu o'rinda raqamli tibbiyot nima degan savol tug'lishi tabiiy. Raqamli tibbiyot – bu sog'liqni saqlashni optimallashtirish va yaxshilash uchun zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo'llash bilan shug'ullanuvchi sohadir. U an'anaviy

tibbiy amaliyotlarni zamonaviy texnologiyalar bilan birlashtirib, kasalliklarni oldini olish, aniqlash, davolash va kuzatish jarayonlarini yanada samarali qilishga xizmat qiladi. Tibbiyot muassasalarining zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanishi qator qulayliklarni keltirib chiqaradi. Avvalgi yillar bilan taqqoslaganda kasalliklarni erta bosqichda aniqlash, resurslardan samarali foydalanish, joylarda tibbiyot xizmatlariga kengroq kirish imkoniyatlari va bir vaqtning o'zida bir nechta xizmatdan foydalanish imkoniyatlarini taqdim etadi. Tibbiyot muassasalarini axborot-texnika vositalari bilan ta'minlash orqali moddiy-texnik bazani mustahkamlash rejalashtirilmoqda. «Aholi salomatligi-2030» milliy strategiyasining 2024-2026 yillarga mo'ljallangan amaliy tadbirlar rejasiga ko'ra, tibbiyot xodimlarining raqamli texnologiyalar bilan ta'minlanganlik darajasini 100 foizga yetkazish mo'ljallangan. Tibbiyot muassasalarini: 2024 yilda 41 300 ta kompyuter jamlanmalari 3500 ta noutbuk, 1800 ta planshetlar, 2025 yilda 28 100 ta kompyuter jamlanmalari 3000 ta noutbuk, 5500 ta planshetlar 2026 yilda 25 700 ta kompyuter jamlanmalari 2500 ta noutbuk, 8000 ta planshetlar bilan ta'minlash uchun texnik talablar ishlab chiqiladi. Albatta bu jarayonlarning barchasi aholi salomatligini mustahkamlash uchun qaratilgan. Shuningdek, 2024-yilning 24-may kuni bo'lib o'tgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasining vakolatli qo'mitalarining yig'lishida Sog'liqni Saqlash Vazirligining "Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risi"da axboroti eshitildi. Qayd etilishicha, so'nggi yillarda sog'liqni saqlash sohasini raqamlashtirish va axborot tizimlari yagona kompleksini joriy etish, boshqaruv jarayonidagi ortiqcha tartib-taomillarini qisqartirish, aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatish qamrovini kengaytirish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Poytaxtimizda sohani raqamlashtirish bo'yicha namunaviy tizim yaratish vazifasi qo'yilib, buning uchun barcha muassasalar yangi kompyuter va texnika vositalari bilan jihozlanishi aytib o'tildi. Yil yakunigacha "Elektron poliklinika" va "Elektron shifoxona" tizimlari ishga tushirildi. Bu o'z navbatida, ortiqcha ovoragarchilik va qog'ozbozliklarga chek qo'yib, barcha ishlarni tizimli ravishda olib borishga, shifokorlarning bemorlar uchun ko'proq

vaqt ajratishiga imkon beradi. Hozirgi kunda mamlakatdagi 3645 ta tibbiyot muassasalarining barchasi yuqori tezlikda internet tarmoqlari bilan ta'minlangan. Shu bilan birgalikda, 23024 nafar tibbiyot xodimlari kompyuteer qurilmalari va planshetlar bilan ta'minlangan. Vazirlik tomonidan Raqamli Sog'liqni Saqlash yagona platformasini, tibbiyot birlashmalari uchun axborot tizimi bazasini yaratish, tibbiyot birlashmalarini AKT infrastrukturasini va telekommunikatsiya qurilmalari bilan jihozlash, shifokor hamshiralarni bilim va ko'nikmalarni oshirish uchun 2024-2026-yillarda "Raqamli sog'liqni saqlash islohotlarini qo'llab-quvvatlash" loyihasi ishlab chiqildi. "Elektron poliklinika" axborot tizimining takomillashtirilgan talqini Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek tumanidagi 7-sonli oilaviy poliklinikasida ishga tushirildi. Avvalgi tizimdan farqli o'laroq, ushbu tizimning patronaj xizmati raqamlashtirildi.

2025-yilda O'zbekiston Sog'liqni Saqlash tizimida bir qancha yangiliklar va dasturlar amalga oshirilishi ko'zda tutilmoqda. Avvalo, kasalliklar profilaktikasi va erta tashxis bo'yicha takomillashtirilgan dasturlar amalga oshiriladi, yangi turdagi ommaviy skrining tekshiruvlari yo'lga qo'yiladi. Jumladan, Tuman (shahar) shifoxonalarida yangi 220 ta diagnostika va 488 ta davolash usuli tatbiq qilinadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Samarqand, Buxoro, Xorazm va Qashqadaryo viloyatlarida davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlari joriy qilinadi. 2026-yilda esa ushbu yangilik Surxondaryo, Farg'ona, Andijon, Toshkent, Namangan hamda Jizzax viloyatlarida tatbiq qilinishi kutilmoqda. Shuningdek, barcha darajadagi tibbiy ta'lim tizimini to'liq transformatsiya qilish, tibbiyot oliy o'quv yurtlari klinikalari faoliyatini takomillashtirish orqali "ilm-fan-ta'lim-malaka oshirish-amaliyot" integratsiyasini ta'minlash, bilim va kasbiy malakani baholash tizimini xalqaro standartlar darajasida tashkil qilish bo'yicha islohotlar boshlanadi. 30 ming nafar mutaxassis Toshkentdagi tibbiyot markazlarida, ming nafar xodim esa xorijdagi nufuzli klinikalarda o'z kasbiy mahoratini oshirishi, 7 ta ixtisoslashtirilgan markaz va 2 ta oliy ta'lim muassasasi xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazilishi ko'zda tutilgan. Shuningdek, 2025-yilda sog'liqni saqlash sohasiga 41 trillion so'm ajratilishi, buning hisobidan yangi shifoxonalar tashkil

etish va jihozlash, mavjud quvvatlarni kengaytirish, tibbiy ko'rik qamrovini kengaytirish rejalashtirilganligini Sog'liqni saqlash vazrligi tomonidan bayon qilindi. Albatta bu imkoniyatlar tibbiyot muassasalarining rivojlanishiga va qamrovini kengaytirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Daryo.uz rasmiy sayti
2. Kun.uz rasmi sayti